

**YANGI O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA
DAVLAT SIYOSATI VA USTUVOR VAZIFALAR****Asilbekov Bobur Ikrom o'g'li***Toshkent davlat transport universiteti**Yurisprudensiya (Xalqaro ommaviy huquq) yo'nalishi I-bosqich talabasi**boburasilbekov07@gmail.com***Ilmiy rahbar: Inagamova Mafura Muxtarxanovna***Toshkent davlat transport universiteti "Xalqaro ommaviy huquq" kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali uzoq yillar mobaynida kun tartibiga aylangan va muhokamalarga sabab bo'layotgan masala - ekologiya sohasiga oid o'z yechimini topmagan muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan sa'y-harakatlar xususida so'z yuritiladi. Ma'lumki, bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyoda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, havoning ifloslanishi va suv tanqisligi kabi muammolar insoniyatning barqaror rivojlanishida jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Yangi O'zbekistonda ham atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishidan biri hisoblanadi. Shu asosda, 2026-yilda qabul qilingan davlat dasturlarida ekologiyani yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish, suv energiya resurslarini tejash kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar va rejalarning amalga oshirilishi hamda ularning ta'siri va samarasi to'g'risida ma'lumotlar atroflicha tahlil qilinib, o'rganilib chiqildi.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, ekologik madaniyat, davlat ekologik siyosati, shaharsozlik faoliyati, Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of issues that, over an extended period, have remained on the public agenda and have been the subject of sustained debate, namely unresolved problems within the field of ecology, as well as the measures undertaken to address them. It is widely acknowledged that environmental challenges currently represent one of the most pressing issues at the global level. Phenomena such as climate change, the depletion of natural resources, atmospheric pollution, and water scarcity exert a substantial adverse impact on the sustainable development of society. In this context, numerous states are designating the provision of environmental sustainability as a priority

area of public policy. In the New Uzbekistan, environmental protection and the development of a “green economy” are likewise recognized as key directions of state policy. Accordingly, the state programs adopted in 2026 establish, as priority objectives, the improvement of environmental conditions, the expansion of green areas, and the rational use and conservation of water and energy resources. The implementation of the aforementioned objectives and planned measures, as well as their outcomes, impact, and overall effectiveness, have been subjected to a detailed and comprehensive analysis within the framework of this study.

Keywords: ecological challenges, environmental stewardship, national environmental policy, urban development governance, World Environment Protection Day.

Insoniyat o‘z taraqqiyotida qanchalik rivojlanmasin, albatta, u tabiatdan ajralgan holda yashay olmaydi. Hozirgi texnika inqilobi hukm surayotgan bir davrda, sanoat, ishlab chiqarish, shaharsozlik va texnologiyalarning jadal sur‘at bilan rivojlanishi atrof-muhitga katta ta‘sir o‘tkazmoqda hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlashda salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, suv va boshqa tabiiy resurslarning kamayishi, chiqindilar muammosi – global ekologik muammolarning kuchayishi olib kelmoqda. Ekologiya holati yomonlashsa, atrof-muhitga zarar yetkazilaversa, uning salbiy oqibatlarini barchaga ta‘sir qiladi. Ushbu muammoni hal qilishda har bir jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish, kompleks – siyosiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy choralarni qo‘llash orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

Ekologik madaniyat – bu inson bilan tabiat munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, uni asrab-avaylashga bo‘lgan mas‘uliyatli yondashuvdir. Ta‘kidlash joizki, ekologik madaniyat belgisi faqat atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyati yoki atrofni toza saqlash, ekologiyani buzmaslik, tabiat ne‘matlariga zarar keltirmaslikka emas, balki tabiatning barcha boyliklariga (yer osti manbalari, hayvonot dunyosi) ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi¹³³. Chunki, ularning barchasi tabiat bir qismi va hayotiy manbalardir. U nafaqat bilim yoki tushuncha, balki kundalik hayot tarziga aylangan qadriyatdir. Ekologik madaniyatli inson tabiatni faqat iste‘mol manbayi sifatida emas, balki uni inson hayotining asosi sifatida ko‘radi¹³⁴.

Ma‘lumki, 2025-yil 26-dekabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Xalqiga va Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasida uzoq yillar mobaynida dolzarb muammo bo‘lib kelayotgan ekologik masalalar bo‘yicha davlat dasturlari va loyihalar belgilanganligini ta‘kidladi. Murojaatnomaning asosiy qismi – 2026-yilda

¹³³ <https://library-tsul.uz/konstitutsiyaviy-huquq-husanov-o-t-2020/>

¹³⁴ [Ekologik madaniyat - barqaror kelajak garovi](#)

amalga oshiriladigan eng muhim 6 ustuvor yo‘nalishdan iborat dastur haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi. Mazkur dasturning beshinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida “Ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish” belgilandi. Unga ko‘ra 2026-yil ekologiya sohasiga davlat byudjetidan **1 trillion 900 milliard so‘m** yo‘naltirishi rejalashtirilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, ushbu masala davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilishi, masalaning dolzarbligini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga murojaatnomada: “1. Yirik korxonalariga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasi o‘rnatish uchun birinchi bosqichda 100 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi. Kelgusi yili Samarqandda Global ekologik jamg‘armaning navbatdagi assambleyasi va Markaziy Osiyo xalqaro ekoko‘rgazmasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadbirlar tarmoqlar, hududlar va biznes uchun hamkorlar topish, yangi ekoloyihalarni birgalikda boshlashga katta imkoniyat yaratadi. 2. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2 mingga yaqin ko‘mir va gazda isitiladigan issiqxona bor. Ulardan havoga yiliga 137 ming tonna zararli modda chiqadi. Endi ko‘mirda filtrsiz ishlaydigan qozonxonalardan voz kechamiz. Ularni poytaxt atrofidan ko‘chirib, hamma joyda markazlashgan qozonxonalar orqali isitishni yo‘lga qo‘yamiz. Shu maqsadda 200 gektardan kam bo‘lmagan agroklastlar tashkil etiladi, ularning tarkibiga o‘tadigan issiqxonalarga alohida subsidiya beriladi. 3. Shaharlarimizdagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etiladi. Katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklanadi. Bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o‘rnatish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishi”, kabi masalar alohida qayd etildi¹³⁵.

Shaharsozlik faoliyati - davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, binokorlik materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarning fuqarolar manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlari, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy -madaniy, ekologik, tabiiy xususiyatlari inobatga olingan holda loyihalashtirilishi, qurilishi va rekonstruksiya sohasidagi faoliyati¹³⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutiya sining 49-moddasiga ko‘ra, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga va davlat

¹³⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

¹³⁶ <https://lex.uz/acts/-46868>

fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko’rsatilishiga yo’l qo’yimaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi hamda shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilishi kabi normalar belgilangan. Bundan ko’rinib turibdiki, shaharsozlik faoliyati konstitutiya darajasida mustahkamlab qo’yilishi bu masalaga bo’lgan e’tiborni kuchaytirdi. Ushbu faoliyatning huquqiy asosi sifatida Shaharsozlik kodeksi ham qabul qilindi. Mazkur faoliyat ushbu kodeksga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

Shaharsozlik faoliyatining asosiy prinsiplari:
– shaharsozlik sohasini fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish asosida O‘zbekiston Respublikasi hududini va uning qismlarini barqaror rivojlantirish;
– binolar va inshootlar konstruksiyalarining xavfsizligi va ishonchiligi, ularning seysmik chidamliligi, yong’in xavfsizligi va energiya samaradorligiga qo’yiladigan talablarga rioya qilgan holda tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari asosida shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish;
– hayotiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish;
– shaharsozlik faoliyati va qurilish ishlab chiqarishida eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish, qurilish sifatini oshirish;
– hududlarni rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish jarayonida jamoatchilikning samarali ishtirokini ta’minlash.

O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi har bir o‘zbek xalqining ekologik huquqlarini ta’minlash maqsadida shaharsozlik faoliyati yo’lga qo’yildi va mamlakat hududida o‘z faoliyatini olib borayotgan har bir jismoniy va yuridik shaxslarga shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish chog’ida aholining qulay faoliyat muhitini asrashi shart ekani qonun hujjatlari bilan mustahkamlanib qo’yildi.

Jahonda, XX asrning 70-yillarida insonlarning ekologik huquqlarini ta’minlash, atrof-muhitni ifloslanishi global muammolarni keltirib chiqargani bois xalqaro miqyosdagi dolzarb masalaga aylandi. Shu asosda, Sog‘lom atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi Birlashgan Millatlar

Tashkiloti tomonidan 1972-yili Stokgolm shahrida o‘tkazilgan konferensiyada ilk bor tilga olingan¹³⁷.



1992-yili Rio de Janeyroda o‘tkazilgan BMT anjumanida qabul qilingan Rio de Janeyro deklaratsiyasida “Odamlar tabiat bilan uyg‘unlikda sog‘lom va samarali hayot kechirish huquqiga ega” deb belgilangan. 1972-yil 5-iyun sanasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha BMT dasturi YUNEPga asos solingan. Har yili 5-iyun sanasida Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifati belgilangan¹³⁸.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning ekologik barqarorlikka qaratilgan davlat siyosati bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr Murojaatnomasida belgilangan “Ekologik muvozanatni ta’minlash, ‘yashil’ energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish” yo‘nalishi doirasida 2026-yilda davlat byudjetidan 1 trillion 900 milliard so‘m ajratilishi, yirik korxonalariga filtr o‘rnatish, issiqxonalarni ko‘chirish, ekologik stikerlar tizimini joriy etish kabi aniq chora-tadbirlar mamlakatimizning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining amaliy ifodasidir.

Shaharsozlik faoliyati sohasidagi konstitutsiyaviy va qonuniy asoslar (Konstitutsiya 49-moddasi, Shaharsozlik kodeksi) esa jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va aholining

¹³⁷ <https://xs.uz/uz/post/5-iyun-butunzhahon-atrof-muhit-kuni>

¹³⁸ https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Butunjahon_atrof-muhitni_himoyalash_kuni&action=edit§ion=1

ekologik huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qilmoqda. Xalqaro tajribaga (Stokgolm-1972, Rio-1992 deklaratsiyalari) asoslanib amalga oshirilayotgan bu siyosat nafaqat atrof-muhitni asrash, balki kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ekologik barqarorlikni ta‘minlash – bu faqat davlatning emas, har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchi va mas‘uliyatidir. Yangi O‘zbekistonning “yashil” kelajagi bugungi qarorlarimizga bog‘liq.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Murojaatnomasi 2025.12.26
<https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. Salimov O.A., Tlektsova J.M., Raxmonqulova Sh.M. “Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha korxonalarining integratsiyasi”. Jurnal 2025 y.
4. “Shaharsozlik to‘g‘risida”gi qonun
5. O.T. Husanov “Konstitutsiyaviy huquq” 199-b.
6. Darslik “Davlat va huquq asoslari” 2024-y. 175-180 b.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Butunjahon_atrof-muhitni_himoyalash_kuni